

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**"RO'YXATGA OLINDI"**

**№ VM-343-53408-4.04**

**"1" iyul 2003 y.**

**"TASDIQLANDI"**

**O'zbekiston Respublikasi**

**Oliy va o'rta maxsus**

**ta'lim vazirligi**

---

**"8" iyul 2003 y.**

**BOJXONA ISHI ASOSLARI  
fanidan  
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"  
ta'lim sohasidagi 5340800 - "Soliqlar va  
soliqqa tortish" bakalavriat yo'nalishi uchun**

**Toshkent - 2003**

**Tuzuvchilar:** dots. Xudoyqulov S.,  
dots. Baymuratov T.

**Taqrizchilar:** dots. Abdullaev J.,  
dots. Saidxo'jaev P.

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tasdiqlangan o'quv rejasiga binoan ishlab chiqilgan va iqtisodiy universitet, institut, fakultetlarining "Moliya va kredit" mutaxassisliklariga tavsiya qilinadi.

В соответствии с государственным стандартом Высшего образования, дисциплина "Основы таможенного дела" является одним из важнейших предметов" по направлению "Налоги и налогообложение".

Данная учебная программа одобрена и рекомендована Министерством высшего и средне специального образования Республики Узбекистан

This program produced through Ministry of high and Secondary Education of Republic of Uzbekistan's approved teaching plan and recommended for "Finance and credit" speciality of economic university, institute and faculties.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dasturlar to'plami O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

## **1. SO'Z BOSHI**

### **O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

Oliy ta'limning Davlat standartlariga muvofiq "Soliqlar va soliqqa tortish" va "Bojxona ishi" yo'nalishlari uchun "Bojxona ishi asoslari" fanini ixtisoslik fan sifatida boshqa ixtisosliklar uchun esa umumkasbiy fan sifatida o'qitish ko'zda tutilgan. Davlatning proteksionizm (ichki bozorni himoyalash) siyosati asosan soliqlar va bojlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa moliya-kredit mexanzmining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi uchun ushbu fanni o'qitishdan asosiy maqsad talabalarga import-eksport operatsiyalaridan majburiy to'lovlarni undurish, boj orqali iqtisodiyotni tartiblash, ichki bozorni himoyalash tartiblarining iqtisodiy-huquqiy mazmunini to'laroq o'rganishdan iborat. "Bojxona ishi asoslari" fani o'rganish

ob'ektining yaqinligiga ko'ra "Jahon iqtisodiyoti", "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Eksport-import operatsiyalarini soliqqa tortish" kabi fanlar bilan o'zaro bog'liq hisoblanadi.

### **O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga talablar**

"Bojxona ishi asoslari" fani talabalarga kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishga, tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi mo'ljallangan bo'lib, unda talabalarning faol ishtirok etishi talab qilinadi.

### **Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar**

Talabalar o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlarining mavzularidan tegishli tartibda tanlab olib, bu mavzular bo'yicha referatlar va mustaqil ishlar tayyorlashlari hamda amaliy mashg'ulotni olib boruvchi professor-o'qituvchi nazoratida tayyorlangan ishlar yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tishlari lozim. Ushbu talablar amaliy mashg'ulotlar mavzularidagi yulduzcha bilan ajratib ko'rsatilgan kichik mavzular bo'yicha talabalarning to'liq o'zlashtirishlarini belgilab beradi.

### **Auditoriya mashg'ulotlari turlarining soatlar hajmi bo'yicha tavsiyalar**

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 81, shu jumladan 18 ma'ruza, 36 amaliy, 27 mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan. "Bojxona ishi asoslari" fani bo'yicha olingan bilimlar talabalarni amaliy faoliyatda uchraydigan dolzarb muammolarni echishda hamda zamonaviy iqtisodiyotga doir adabiyotlarni o'rganib, kasbiy malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

### **Talabalar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori**

"Soliq va soliqqa tortish" fanidan talabalarning bilimini baholash to'rt marta oraliq, to'rt marta joriy, hamda yakuniy nazorat shakllarida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat yozma ish shaklida tashkil etiladi.

### **Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash**

"Bojxona ishi" fanini o'qitishda kompyuterlardan, audio va video jihozlardan, diaproskop va kodoskoplardan, shuningdek, dars davomida turli jadvallar hamda slaydlardan foydalanish talab etiladi.

## **2. FAN DASTURI**

### **"Bojxona ishi asoslari" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari**

#### **"Bojxona ishi asoslari" fanining predmeti va vazifalari**

O'zbekiston Respublikasi bojxona tizimiga umumiy tavsif. "Bojxona ishi asoslari" fanining predmeti va uning asosiy vazifalari. *Bojxona faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. Bojxona organlarining tashkiliy tuzilishi.* O'zbekistonda bojxona xizmatining tashkil etilishi va rivojlanishi. Bojxona munosabatlarida qo'llaniladigan asosiy atama va tushunchalarning mazmuni.

#### **O'zbekistonda bojxona siyosati**

Bojxona siyosatining mazmuni va tarkibi. *Bojxona siyosatining asosiy maqsadi, vazifalari va tamoyillari.* Davlat iqtisodiy siyosatining amalga oshirilishida O'zbekiston Respublikasida bojxona siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

#### **Bojxona nazoratining amalga oshirilishi**

Tovar va transport vositalarini olib kirish (olib chiqish)da bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish. *Bojxona nazoratining mazmuni va shakllari. Dastlabki qarorning qabul qilinish omillari. Bojxona nazoratini tashkil etish tamoyillari.* Transport vositalari, yuklar va xalqaro pochta jo'natmalarini bojxona ko'rigidan o'tkazish tartibi. Yuklarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish tartibi. Bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD) haqida tushuncha va uni rasmiylashtirish tartibi.

#### **Bojxona rejimlari va ularning qo'llanilishi**

O'zbekiston Respublikasida bojxona rejimlarining mazmuni va turlari. Bojxona rejimlariga umumiy tavsif. Erkin muomalaga chiqarishning mazmuni.

*Maxsus maqsadlar uchun qo'llaniluvchi rejimlar. Bojxona rejimini tanlash va o'zgartirish tartibi.* Tovarlarini olib chiqishni ta'qiqlash va cheklash tartibi.

#### **Bojxona bojlari va tariflarni qo'llash tartibi**

"Boj ta'rifi" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni, uning mazmuni va mohiyati. Tarif stavkalari va ularning tarkibi. Tariflarning tasniflanishi. *Bojxona bojlari va ularning turlari. Yuk bojlarining iqtisodiy siyosatda qo'llanilishi. O'zbekiston Respublikasi savdo siyosatida bojlardan foydalanish.* Bojlarni o'z vaqtida to'lamaganlik yoki noto'g'ri to'langanda qo'llaniladigan jazo turlari.

#### **Bojxona qiymati va uni aniqlash usullari**

Tovarning bojxona qiymatini aniqlashning maqsad va vazifalari. *Tovarning bojxona qiymatini aniqlashning jahon tajribasi. Bojxona qiymatini deklaratsiyalash tartibi. Bojxona qiymatini aniqlashning asosiy (birinchi) usuli.* Aynan bir xil va o'xshash tovarlar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini aniqlashning ikkinchi va uchinchi usullari. Qiymatlarni ayirish va qo'shish asosida bojxona bahosini aniqlashning to'rtinchi va beshinchi usullari. Bojxona qiymatini aniqlashning rezerv oltinchi usuli.

### **Yuklarni tashishda bojxona nazorati**

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tishning huquqiy asoslari. *Sertifikatlangan tovarlarni olib kirish va olib chiqish tartibi.* Litsenziyalangan tovarlarni harakatlanishini bojxona nazoratidan o'tkazish. Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik.

### **Xalqaro yuk tashish qoidalari**

Xalqaro savdoda yuk tashish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ularning ahamiyati. *Yukni jo'natishga tayyorlash. Xalqaro transport kompaniyalari va transport tariflari.*

O'zbekistonda transport siyosati. Xalqaro yuk tashishda "Inkoterm" mohiyati va maqsadi.

## **3. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING MAZMUNI**

### **"Bojxona ishi asoslari" fanining predmeti va vazifalari**

O'zbekiston Respublikasi bojxona tizimiga ishining umumiy tavsif. "Bojxona ishi asoslari" fanining predmeti va uning asosiy vazifalari\*. Bojxona faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. Bojxona organlarining tashkiliy tuzilishi. O'zbekistonda bojxona xizmatining tashkil etilishi va rivojlanishi\*. Bojxona munosabatlarida qo'llaniladigan asosiy atama va tushunchalarning mazmuni.

### **O'zbekistonda bojxona siyosati**

Bojxona siyosatining mazmuni va tarkibi. Bojxona siyosatining asosiy maqsadi, vazifalari va tamoyillari\*. Davlat iqtisodiy siyosatining amalga oshirilishida O'zbekiston Respublikasida bojxona siyosatining o'ziga xos xususiyatlari\*.

### **Bojxona nazoratining amalga oshirilishi**

Tovar va transport vositalarini olib kirish(olib chiqish)da bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish. Bojxona nazoratining mazmuni va shakllari\*. Dastlabki qarorning qabul qilinish omillari. Bojxona nazoratini tashkil etish tamoyillari. Transport vositalari, yuklar va xalqaro pochta jo'natmalarini bojxona ko'rigidan o'tkazish tartibi. Yuklarni bojxona

rasmiylashtiruvdan o'tkazish tartibi\*. Bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD) haqida tushuncha va uni rasmiylashtirish tartibi.

### **Bojxona rejimlari va ularning qo'llanilishi**

O'zbekiston Respublikasida bojxona rejimlarining mazmuni va turlari\*. Bojxona rejimlariga umumiy tavsif. Erkin muomalaga chiqarishning mazmuni.

Maxsus maqsadlar uchun qo'llaniluvchi rejimlar. Bojxona rejimini tanlash va o'zgartirish tartibi\*. Tovarlarini olib chiqishni ta'qiqlash va cheklash tartibi.

### **Bojxona bojlari va tariflarni qo'llash tartibi**

"Boj tarifi" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni, uning mazmuni va mohiyati. Tarif stavkalari va ularning tarkibi\*. Tariflarning tasniflanishi. Bojxona bojlari va ularning turlari. Yuk bojlarining iqtisodiy siyosatda qo'llanilishi\*. O'zbekiston Respublikasi savdo siyosatida bojlardan foydalanish. Bojlarni o'z vaqtida to'lamaganlik yoki noto'g'ri to'langan chog'ida qo'llaniladigan jazo turlari\*.

### **Bojxona qiymati va uni aniqlash usullari**

Tovarning bojxona qiymatini aniqlashning maqsad va vazifalari\*. Tovarning bojxona qiymatini aniqlashning jahon tajribasi. Bojxona qiymatini deklaratsiyalash tartibi\*. Bojxona qiymatini aniqlashning asosiy (birinchi) usuli. Aynan bir xil va o'xshash tovarlar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini aniqlashning ikkinchi va uchinchi usullari. Qiymatlarni ayirish va qo'shish asosida bojxona bahosini aniqlashning to'rtinchi va beshinchi usullari\*. Bojxona qiymatini aniqlashning rezerv oltinchi usuli.

### **Yuklarni tashishda bojxona nazorati**

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tishning huquqiy asoslari\*. Sertifikatlangan tovarlarni olib kirish va olib chiqish tartibi. Litsenziyalangan tovarlarni harakatlanishini bojxona nazoratidan o'tkazish\*. Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik.

### **Xalqaro yuk tashish qoidalari**

Xalqaro savdoda yuk tashish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ularning ahamiyati\*. Yukni jo'natishga tayyorlash. Xalqaro transport kompaniyalari va transport tariflari.

O'zbekistonda transport siyosati\*. Xalqaro yuk tashishda "Inkoterm" mohiyati va maqsadi.

## **4. INFORMATsION-TEXNIK VOSITALAR**

Bu fanni o'qitish jarayonida quyidagi zamonaviy texnik vositalardan foydalanish belgilangan.

- E-mail: [mail@finstat.ru](mailto:mail@finstat.ru)  
<http://www.finstat.ru/>
- E-mail: [valeo@etel.ru](mailto:valeo@etel.ru)
- <http://www.alpbook.ru/>  
E-mail: [alpina@alp.ru](mailto:alpina@alp.ru)

## **5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI**

Fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YaB).

JB va OB turlari uchun belgilangan ballar miqdori o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning) 70 foizi, yakuniy baholash esa 30 foiz miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan keyin YaB "Yozma ish" shaklida (o'quv rejasiga ko'ra) o'tkaziladi.

Tayanch tushunchalarga asoslangan yozma ish o'tkazish tartibi "Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida" "Yozma ish" usulini tatbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom bilan belgilanadi. Semestr (o'quv yili) davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal, 55 va unda yuqori foiz miqdorida ball to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55 foizidan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan (akademik qarzdor) hisoblanadi.

## **6. ADABIYOTLAR**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: Adolat, 1999.
2. O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi. Iqtisodiyot va huquq dunyosi. -T., 1998.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Qarori "O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksini amalga kiritish tartibi to'g'risida" 1997 yil 26 dekabr.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari -T.: O'zbekiston, 1998.

5. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1998.
6. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolini asosiy tamoyillari. -T.: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1998.
8. Gataulin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish, -T., 1996.
9. Yo'ldoshev M., Tursunov Y. Soliq huquqi. -T.: Moliya, 2000.
10. Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: Akademiya, 2002.
11. Nalogi i nalogooblajenie v voprosax i otvetax: chast 1. -T.: GNK, 1998.
12. "Nalogi i nalogooblajenie v Rossiyskoy Federatsii" (uchebnik dlya VUZov). -M.: Knijniy mir, 1999.
13. Nalogi pod.red. D.G Chernika (uchebnoe posobie). -M.: Finansi i statistika, 1998.
14. Finansi (Pod. red. Drobozinoy L.A.). -M.: Yuniti, 2000.
15. Xvan L.B. Soliq huquqi, -T.: Konsaudit inform, 2001.
16. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. -T.: G'.G'ulom, 2000.
17. Yahyoev Q. O'zbekistonning solikli va soliqsiz to'lovlari. -T.: 1999.
18. Yahyoev Q. O'zbekistonda soliq tizimi. -T.: Mehnat, 1998.
19. Chernik D.G. Nalogi v rinochnoy ekonomike. -M.: Yuniti.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Bojxona qonun hujjatlaridagi yangiliklar-1. Buxgalter kutubxonasi. Iqtisodiyot va huquq dunyosi. -T., 1998.
2. Bojxona qonun hujjatlaridagi yangiliklar-2 Buxgalter kutubxonasi. Iqtisodiyot va huquq dunyosi. T., 1998.
3. Eksport-import yuklarini rasmiylashtirishda bojxona organlariga taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1998 yil 8 aprelda 428-son bilan ro'yxatdan o'tgan.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasining 05/8 - 373-sonli Bojxona qiymatini deklaratsiyasini to'ldirish bo'yicha yo'riqnoma -T., 1998.